



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 07 | pp. 165-172 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TEMIRYO'L TRANSPORT KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH



Mukhamedova Sitora Ilhomovna

O'zbekiston Respublikasi, Samarqand iqtisodiyot
va servis institutining (PhD) doktoranti

E-mail: Sitamukhamedova1210@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada temiryo'l transport korxonalarida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) asosida xarajatlar hisobini yuritishning ahamiyati va zaruriyati yoritilgan. MHXSlar talablariga muvofiq xarajatlarni to'g'ri tasniflash va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish, korxonaning moliyaviy holati va foydaliligi haqida aniq ma'lumot olish imkonini yaratadi. Shuningdek, maqolada amaldagi hisob yuritish tizimidagi muammolar va ularni takomillashtirish yo'llari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: MHXS, temiryo'l transporti, xarajatlar hisobi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, takomillashtirish.

Аннотация. В данной статье рассматривается важность и необходимость ведения учета затрат на предприятиях железнодорожного транспорта на основе Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО). Правильная классификация затрат в соответствии с требованиями МСФО и их отражение в бухгалтерском учете позволяет получить точную информацию о финансовом состоянии и рентабельности предприятия. Также в статье анализируются существующие проблемы в действующей системе учета и предлагаются пути их совершенствования.

Ключевые слова: МСФО, железнодорожный транспорт, учет затрат, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, совершенствование.

Annotation. This article explores the significance and necessity of implementing cost accounting based on International Financial Reporting Standards (IFRS) in railway transport enterprises. Proper classification of expenses according to IFRS requirements and their accurate reflection in accounting records provide clear insights into a company's financial position and profitability. The article also analyzes existing issues within the current accounting system and proposes methods for its improvement.

Keywords: IFRS, railway transport, cost accounting, financial accounting, financial reporting, improvement.

Kirish. Mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda transport-kommunikatsiya infratuzilmasining, xususan, temiryo'l transporti tizimining tutgan o'rni beqiyosdir. Temiryo'l transporti yuk va yo'lovchi tashish xizmatlarida xavfsizlik, ishonchlilik va tejamkorlik kabi afzalliklari bilan ajralib turadi.

So'nggi yillarda ushbu sohani modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va menejment tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda, ayniqsa, temiryo'l transport korxonalarida moliyaviy boshqaruvning samaradorligini oshirish va xalqaro standartlarga mos buxgalteriya hisobi tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayonida ochiqlik, taqqoslanish va ishonchlikni ta'minlovchi global me'zonlar tizimidir. Temiryo'l transport korxonalarida xarajatlar hisobining aynan MHXS talablari asosida yuritilishi, ularning iqtisodiy faoliyatini yanada shaffof va tahlilga yaroqli qilish bilan birga, xorijiy investorlar ishonchini oshirishga, xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyalashuvga xizmat qiladi.

Shunga qaramay, amaliyotda MHXSlar asosida xarajatlar hisobini yuritishda qator muammolar, jumladan, kadrlar malakasining yetarli emasligi, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining to'liq joriy etilmaganligi, milliy standartlar bilan muvofiqlashtirishdagi ziddiyatlar kabi holatlar kuzatilmoqda. Mazkur maqolada ushbu muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yo'llari va MHXS asosida xarajatlar hisobining takomillashuvi bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori hamda 2016-yildagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun (O'RQ-404) milliy hisob tizimini MHXS talablari bilan muvofiqlashtirishda asosiy vazifani bajarmoqda. [1, 2, 3, 4]

X.Misirovning "Temir yo'l transporti korxonalarida moliyaviy hisobni xalqaro standartlar asosida tashkil qilishning o'ziga xos jihatlari" nomli maqolasi muhim nazariy asoslarni taqdim etadi. Unda korxonalarda hisob siyosatini shakllantirish, hujjatlashtirish, moliyaviy hisobotlarni MHXS talablari asosida tuzish va xatolarni tuzatish bo'yicha retrospektiv va perspektiv usullar tahlil qilingan. [5]

S.Xujayevning "Temir yo'l transporti korxonalarida samarali boshqaruv qarorlarni qabul qilishda buxgalteriya hisobi axborot ta'minotining roli" maqolasi transport tarmog'idagi buxgalteriya hisobi axborot tizimi — moliyaviy, soliq, boshqaruv hisobi quyi tizimlari orqali rahbarlikka samarali qaror qabul qilishda zarur axborot taqdim etilishini tahlil qilgan. [6]

I.Turdiyevaning "Temir yo'l va intermodal transport tizimining rivojlanishi: investitsiyalar, xarajatlar va samaradorlik tahlili" nomli maqolasida O'zbekistonda 2019–2023-yillarda temir yo'l transporti xarajatlar tarkibidagi o'zgarishlarni materiallar, yoqilg'i, elektr energiyasi, mehnat haqi kabi elementlar bo'yicha tahlil qiladi. Bu ma'lumotlar xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish to'g'risida muhim amaliy kontekst beradi. [7]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishining metodologiyasi temiryo'l transport korxonalarida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) asosida xarajatlar hisobining yuritilishi amaliyotini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Tahlil va natijalar. Ushbu tadqiqot doirasida temiryo'l transport korxonalarida xarajatlar hisobining xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) asosida yuritilishining amaldagi holati tahlil qilindi. Tadqiqotlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda

olib borildi: mavjud hisob siyosatining MHXS talablariga muvofiqligi, xarajatlar tasnifining aniqligi, buxgalteriya axborot tizimi holati, shuningdek, moliyaviy hisobotlarda xarajatlarning aks ettirilishi. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ va uning sho‘ba korxonalarining (masalan, “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ, “O‘ztemiryo‘lvo‘lovchi” AJ) 2021–2024-yillar davomidagi buxgalteriya hisobotlari asosida quyidagi holatlar aniqlandi:

1. Xarajatlar klassifikatsiyasi hali to‘liq MHXSga mos ravishda yuritilmayapti. Masalan, MHXS 2 (Zaxiralar), MHXS 16 (Asosiy vositalar), MHXS 38 (Nomoddiy aktivlar) talablari asosida xarajatlarni bo‘lish va amortizatsiya siyosati jihatdan tafovutlar mavjud.

2. Boshqaruv xarajatlari bilan ishlab chiqarish xarajatlari chegarasi amaliyotda aniq ajratilmaydi, bu esa foyda va zarar hisoboti sifatiga ta‘sir ko‘rsatmoqda.

3. Kapital xarajatlar va joriy xarajatlarning chalkashligi moliyaviy ko‘rsatkichlarning ishonchligini pasaytiradi. MHXS bo‘yicha ayrim xarajatlar kapitalizatsiya qilinishi kerak bo‘lsa-da, amaliyotda ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatga yozib yuborilmoqda.

Ko‘pgina korxonalarda hisob dasturlari (1C: Buxgalteriya, Excel asosida yuritiladigan reyestrlar) to‘liq avtomatlashtirilmagan, bu esa MHXSga muvofiq bo‘lgan operatsion va moliyaviy hisobotlarni yaratishda qo‘lda ishlov berishga olib keladi. Axborot xavfsizligi va real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatlari yetarli darajada emas. Bu holat MHXSga asoslangan baholash va tahlil jarayonlarining kechikishiga sabab bo‘lmoqda. Korxonalarda faoliyat yuritayotgan buxgalter va moliyachilarning aksariyati milliy standartlar asosida ishlashga o‘rgangan, ammo MHXS bo‘yicha chuqur bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega emasligi aniqlangan. So‘rovnomalarda ishtirok etgan 20 nafar buxgalterning 65 foizi MHXS standartlari bo‘yicha doimiy malaka oshirishga muhtojligini bildirgan.

Xalqaro tajribalarni o‘rganadigan bo‘lsak, Rossiyaning “RJD” (Rossiya temir yo‘llari) kompaniyasida MHXS 16 (Ijara) va MHXS 23 (Foiz xarajatlari) bo‘yicha xarajatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri asosiy vositalar va moliyaviy ko‘rsatkichlarga bog‘lanishini ko‘rishimiz mumkin. Germaniyaning Deutsche Bahn AG kompaniyasida esa xarajatlar boshqaruvi SAP ERP kabi integratsiyalashgan axborot tizimlari orqali amalga oshiriladi, bu esa hisobotning aniqligini ta‘minlaydi. Ushbu yondashuvlar O‘zbekistonda joriy etilsa, xarajatlar nazorati va samaradorligini oshirish mumkin.

1-jadval

Asosiy tahliliy natijalar (yig‘ma xulosa shaklida)¹

№	Tahlil yo‘nalishi	Aniqlangan muammo yoki holat	MHXSga mosligi
1	Xarajatlar tasnifi	Boshqaruv va ishlab chiqarish xarajatlari farqlanmaydi	Past
2	Kapital va joriy xarajatlar	To‘g‘ri ajratilmaydi	O‘rta
3	Axborot texnologiyalari	Avtomatlashtirish past, real vaqt monitoring yo‘q	Past
4	Kadrlar malakasi	MHXS bo‘yicha bilim yetarli emas	Past

¹ Muallif ishlanmasi

5	Hisobot sifati	To'liq tahliliy va tavsiflovchi xarakterga ega emas	O'rta
---	----------------	---	-------

Yuqoridagi tahliliy jadvaldan ko'rinib turibdiki, temiryo'l transport korxonalarida MHXSlar asosida xarajatlar hisobining yuritilishida bir qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, xarajatlarning to'g'ri tasniflanmasligi, boshqaruv va ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farqlarning amalda aniqlanmasligi moliyaviy hisobotlarning aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kapital xarajatlar va joriy xarajatlarni ajratish borasida nisbatan o'rtacha darajadagi yondashuv mavjud bo'lsa-da, bu ham MHXS talablariga to'liq javob bermaydi. Buxgalteriya axborot tizimlari zamonaviylashtirilmagan, natijada xarajatlar monitoringi va tahlili real vaqt rejimida amalga oshirilmayapti. Bu esa boshqaruv qarorlarining tezkor va samarali qabul qilinishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, buxgalteriya va moliya xodimlarining ko'pchiligi xalqaro standartlar bo'yicha yetarli bilim va amaliy ko'nikmaga ega emasligi, hisob yuritish jarayonida xatoliklar va standartdan chetlanish holatlarining yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Umuman olganda, hozirgi bosqichda temiryo'l transport korxonalarida MHXSlar asosida xarajatlar hisobining yuritilishi hali past darajada ekanligi, tizimni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli, bu borada kompleks yondashuv zarur bo'lib, texnologik, tashkiliy va kadrlar salohiyatini oshirish orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin.

2-jadval

Temiryo'l transporti korxonalarining asosiy xarajat turlarining tahlili (2021–2024 yillar)²

№	Xarajat turlari	2021-yil (mlrd so'm)	2022-yil (mlrd so'm)	2023-yil (mlrd so'm)	2024-yil (mlrd so'm)	2024- yildagi ulushi (%)	2024 yilning 2021 yilga nisbatdan o'sish surati (%)
1	Ish haqi va ijtimoiy badallar	1 250	1 365	1 470	1 630	24,5 %	+30,4 %
2	Yoqilg'i va energiya	980	1 120	1 345	1 590	23,9 %	+62,2 %
3	Ta'mirlash va tex. xizmat	720	790	860	950	14,3 %	+31,9 %
4	Amortizatsiya	600	670	750	840	12,6 %	+40,0 %
5	Materiallar	450	520	570	635	9,5 %	+41,1 %
6	Boshqa (ijara, xizmatlar)	390	420	470	520	7,8 %	+33,3 %
Jami xarajatlar		4 390	4 885	5 465	6 165	100 %	+40,4 %

**Manba: "O'zbekiston temir yo'llari" AJ yillik hisobotlari va ochiq moliyaviy ma'lumotlar asosida hisoblab chiqilgan (shartli statistik ma'lumotlar asosida).*

² Muallif ishlanmasi: "O'zbekiston temir yo'llari" AJ yillik hisobotlari va ochiq moliyaviy ma'lumotlar asosida hisoblab chiqilgan (shartli statistik ma'lumotlar asosida).

Mazkur jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, yoqilg'i va energiya xarajatlari 2021-yildan 2024-yilgacha eng katta o'sishga ega bo'lib, 62,2 % ga ko'paygan. Bu narxlarning oshishi va infratuzilma eskirishi bilan bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ish haqi va ijtimoiy badallar esa eng yirik ulushni tashkil etadi (2024-yilda 24,5 %), bu esa ishlab chiqarish xarajatlarning mehnat resurslariga qanchalik bog'liqligini ko'rsatadi. Amortizatsiya xarajatlari yil sayin oshib bormoqda, bu esa aktivlar qayta baholanishi va MHXS talablariga yaqinlashuv natijasi bo'lishi mumkin. Xarajatlar umumiy hajmda 40 % dan ortiq o'sdi, bu esa xarajatlar hisobi va boshqaruv tizimini MHXS asosida optimallashtirish zarurligini tasdiqlaydi. [8]

3-jadval

MHXS asosida xarajatlarni aks ettirishdagi muhim standartlar va amaliyotdagi muvofiqlik darajasi³

№	MHXS raqami	Standart nomi	Temiryo'l transportidagi qo'llanish sohasi	Amaliyotdagi tatbiq darajasi	Muammolar
1	MHXS 2	Zaxiralar	Yo'l materiallari, ehtiyot qismlar, yoqilg'i	O'rta	Qisqa muddatli va uzoq muddatli zaxiralar farqlanmaydi
2	MHXS 16	Asosiy vositalar	Lokomotivlar, vagonlar, stansiya uskunalari	Qisman yuqori	Eskirish stavkalari noaniq, kapitalizatsiya mezonlari o'zgarib
3	MHXS 38	Nomoddiy aktivlar	Dasturiy ta'minot, litsenziyalar, texnik loyihalar	Past	Nomoddiy aktivlar xarajatga yozib yuborilmoqda
4	MHXS 23	Foiz xarajatlari	Investitsion loyihalarga jalb qilingan qarzlar bo'yicha foizlar	Juda past	Kapital xarajat sifatida emas, joriy xarajat sifatida kiritiladi
5	MHXS 1 va 10	Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish	Xarajatlar toifasini hisobotda ifodalash	O'rta	Xarajatlar funksional emas, faqat umumlashtirilgan ko'rinishda

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, temiryo'l transport korxonalarida MHXS larning asosiy xarajatga oid standartlari (MHXS 2, 16, 38, 23, 1 va 10) to'liq va tizimli qo'llanilmayapti. Ayniqsa, nomoddiy aktivlar (MHXS 38) va foiz xarajatlari (MHXS 23) bo'yicha muvofiqlik darajasi past bo'lib, bu xarajatlarning noto'g'ri tasniflanishiga va natijada moliyaviy hisobotlarda yoritilmasligiga olib kelmoqda. Asosiy vositalar (MHXS

³ Muallif ishlanmasi: amaliyotdagi tatbiq darajasi "Past / O'rta / Yuqori" sifatida subyektiv ekspert bahosiga asoslangan.

16) bo'yicha ayrim korxonalarda kapitalizatsiya va amortizatsiya siyosati mavjud bo'lsa-da, eskirish stavkalari yetarlicha asoslantirilmagan. Shuningdek, zaxiralar (MHXS 2) va ularning baholash mezonlari ham har doim xalqaro talablarga muvofiq yuritilmaydi. Umuman olganda, MHXS talablarining amaliyotga integratsiyasi sust kechmoqda. Bu holat moliyaviy axborotning ishonchliligi va tahliliy qiymatini pasaytiradi, shuningdek, investorlar va manfaatdor tomonlar uchun risklarni oshiradi.

4-jadval

Xarajatlar samaradorligini turli ko'rsatkichlar orqali baholash
(2021–2024 yillar tahlili)⁴

No	Ko'rsatkich nomi	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	Izohli tahlil
1	1 km yo'lga to'g'ri kelgan xarajat (mln so'm)	3,9	4,3	4,8	5,5	Yiliga o'rtacha 12–14 % o'sish, xarajatlar ortib bormoqda
2	1 vagon-harakati uchun xarajat (ming so'm)	950	990	1 070	1 160	Operatsion xarajatlar ortmoqda
3	Ish haqi xarajati / jami xarajatlar (%)	28,5	27,9	26,9	26,4	Mehnat xarajatlarning ulushi pasaymoqda
4	Energiyani bir birlik tashuvga sarfi (kVt/tonna.km)	0,82	0,79	0,76	0,73	Energiya samaradorligi biroz yaxshilanmoqda
5	Xarajatlarning o'zini oqlash koeffitsienti (daromad/xarajat)	1,14	1,11	1,08	1,06	Har bir 1 so'mlik xarajatga 1,06 so'm daromad, pasayish bor

2021–2024 yillar oralig'ida temiryo'l transport korxonalarining xarajatlar samaradorligi bo'yicha ko'rsatkichlari o'rganilganda, xarajatlarning absolyut hajmda ortib borayotganligi kuzatildi. Masalan, 1 km temiryo'lga to'g'ri keladigan xarajat 2021-yildagi 3,9 mln so'mdan 2024-yilda 5,5 mln so'mga ko'tarilgan. Bu o'sish asosan yoqilg'i, energiya va amortizatsiya xarajatlarning keskin ko'payishi bilan bog'liq.

Shu bilan birga, mehnat xarajatlarning umumiy xarajatlardagi ulushi yil sayin kamaygan. Bu bir tomondan ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi ortayotganini anglatishi mumkin bo'lsa-da, boshqa tomondan – mehnat resurslari yetishmovchiligi yoki ish haqi siyosatining sustligiga ham ishora qiladi. Ijobiy tomoni shundaki, energiya samaradorligi yildan-yilga yaxshilanmoqda (0,82 dan 0,73 kVt/tonna.km gacha kamaygan). Bu esa texnik jihatdan yangilanishlar borligidan darak beradi. Biroq

⁴ Muallif ishlarnasi: ma'lumotlar "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ochiq statistik axborotlaridan va shartli hisob-kitoblardan olingan.

xarajatlarning o'zini oqlash koeffitsientining 1,14 dan 1,06 gacha pasayishi — har bir 1 so'mlik xarajatga olinayotgan daromad miqdori kamayganini ko'rsatadi. Bu moliyaviy jihatdan xavotirli signal bo'lib, xarajatlar tuzilmasini qayta ko'rib chiqish va MHXS asosida optimallashtirish zarurligini taqozo etadi.

Xulosa va takliflar. Temiryo'l transport korxonalarida MHXSlar (Milliy Hisoblash Xalqaro Standartlari) asosida xarajatlar hisobining yuritilishi tizimi hozirgi kunda ham ma'lum darajada murakkab va takomillashtirishni talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xarajatlar hisobi amaliyotida MHXSlar to'liq va izchil tatbiq etilmaydi, bu esa moliyaviy hisobotlarning aniqligi va ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Eng ko'zga ko'ringan muammolar qatoriga nomoddiy aktivlar va foiz xarajatlarning noto'g'ri tasniflanishi, asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya siyosatining sustligi, shuningdek, xarajatlarni funksional asosda ajratishda muammolar kiradi. Bu esa temiryo'l korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini pasaytiradi.

Xarajatlar strukturasi yirik ulushni ish haqi, yoqilg'i va amortizatsiya xarajatlari tashkil etadi. Shu bilan birga, energiya samaradorligining yaxshilanishi ijobiy omil bo'lsa-da, umumiy xarajatlar va ularning o'zini oqlash koeffitsienti pasayishi moliyaviy barqarorlikka tahdid solmoqda. Shuning uchun, MHXSlarga asoslangan hisob tizimini takomillashtirish orqali xarajatlarni aniqroq, tizimli va samarali nazorat qilish zarur. Shu munosabat bilan, quyidagi asosiy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, temiryo'l transport korxonalarida MHXSlarga to'liq va izchil rioya qilishni ta'minlash zarur. Buning uchun hisob yuritish jarayonlariga oid aniq metodologik ko'rsatmalar ishlab chiqilishi, ichki yo'riqnomalar yaratilib, xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha muntazam treninglar tashkil etilishi lozim.

Ikkinchidan, moliyaviy va buxgalteriya axborot tizimlarini modernizatsiya qilish kerak. Zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish orqali xarajatlarni real vaqt rejimida monitoring qilish, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini tez va aniq qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

Uchinchidan, xarajatlarni funksional va bo'limlar bo'yicha aniq ajratish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilishi lozim. Bu har bir sohaning samaradorligi va rentabelligini aniq tahlil qilishga imkon berib, resurslarni samarali taqsimlashni ta'minlaydi.

To'rtinchidan, asosiy vositalarning amortizatsiya siyosatini qayta ko'rib chiqish zarur. Eskirish stavkalari va amortizatsiya usullarini zamonaviy talab va standartlarga muvofiq moslashtirish orqali moliyaviy hisobotlarning aniqligi oshiriladi.

Beshinchidan, nomoddiy aktivlar va foiz xarajatlarini MHXS talablariga mos holda hisobga olish kerak. Ularni xarajat emas, balki aktiv sifatida tan olish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini yaxshilaydi.

Oltinchidan, xodimlarning malakasini muntazam oshirish va ichki nazorat tizimini kuchaytirish tavsiya etiladi. Bu esa hisob-kitoblarda xatolik va firibgarliklarning oldini olishga yordam beradi.

Temiryo'l transport korxonalarida MHXSlar asosida xarajatlar hisobining yuritilishi tizimini takomillashtirish hozirgi davr talablariga javob berish, moliyaviy hisobotlarning aniqligi va shaffofligini oshirish uchun zarurdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki,

hisob-kitoblarda MHXS standartlariga to'liq rioya qilinmasligi va amaliyotdagi noaniqliklar moliyaviy boshqaruv samaradorligini pasaytiradi hamda korxona faoliyatining raqobatbardoshligini susaytiradi.

Shu sababli, hisob yuritish jarayonlarida MHXS'larga izchil amal qilish, zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish, xarajatlarni funksional asosda aniq ajratish, asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya siyosatini takomillashtirish hamda nomoddiy aktivlar va foiz xarajatlarini to'g'ri hisoblash kabi chora-tadbirlar amalga oshirilishi shart. Bundan tashqari, xodimlarning malakasini oshirish va ichki nazoratni kuchaytirish moliyaviy jarayonlardagi xatoliklarni kamaytirish va hisob-kitoblarning ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu takliflar amalga oshirilganda, temiryo'l transport korxonalari xarajatlarni boshqarishda aniqroq va samaraliroq bo'lib, o'z moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bilan birga, iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, korxonalar bozor sharoitida raqobatbardoshligini oshiradi va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, 2020-yil 24-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunlari. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-404), 2016-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-fevraldagi "Milliy hisoblash hisoboti standartlarini joriy etish to'g'risida"gi qarori № 45. Tashkent, 2019.
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. "Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot standartlari" bo'yicha metodik qo'llanma. Tashkent, 2021.
5. Misirov X. "Temir yo'l transporti korxonalarida moliyaviy hisobni xalqaro standartlar asosida tashkil qilishning o'ziga xos jihatlari," [maqola]. – Toshkent, 2022.
6. Xujayev S. "Temir yo'l transporti korxonalarida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda buxgalteriya hisobi axborot ta'minotining roli," [maqola]. – Toshkent, 2023.
7. Turdiyeva I. "Temir yo'l va intermodal transport tizimining rivojlanishi: investitsiyalar, xarajatlar va samaradorlik tahlili," [maqola], 2019–2023-yillar ma'lumotlari asosida. – Toshkent, 2024.
8. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

